QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

1925-1991-YILLARDA O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASHNING HOLATI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.099

Narmanov Feruz Asfandiyorovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotasiya.Mazkur ilmiy maqolada 1925-1991-yillar oralig‘ida O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimida tarixchi mutaxassislar tayyorlash jarayonining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy xususiyatlari tahlil etiladi. Unda tarix ta’limining dastlabki institutlashtirilishidan tortib, sovet mafkurasi ta’sirida shakllangan o‘quv rejalari, kadrlar siyosati va ilmiy-pedagogik maktablarning evolyutsiyasi o‘rganiladi. Shuningdek, tarixchi kadrlar tayyorlovchi muassasalar xususan, Samarqand, Toshkent va boshqa yirik shaharlardagi oliy o‘quv yurtlarining roli va ta’siri, ijtimoiy-siyosiy omillar bilan o‘zaro aloqasi tahliliy yondashuv asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar*:* ta’lim tizimi, tarix fakulteti, tarix o‘qituvchisi, pedagogika oliygohlari.

Аннотация.В данной научной статье анализируются процессы формирования и этапы развития подготовки специалистов-историков в системе высшего образования Узбекистана в период 1925-1991 годов. Исследуется институционализация исторического образования, влияние советской идеологии на содержание учебных планов, кадровую политику и эволюцию научно-педагогических школ. Особое внимание уделяется роли и влиянию вузов, подготавливающих историков, в частности в Самарканде, Ташкенте и других крупных городах, а также их взаимосвязи с социально-политическими факторами.

Ключевые слова: система образования, факультет истории, преподаватель истории, педагогические вузы.

Abstract.This scientific article analyzes the formation and development stages of training history specialists within Uzbekistan's higher education system during the period from 1925 to 1991. The study explores the early institutionalization of historical education, the influence of Soviet ideology on curricula, personnel policies, and the evolution of academic-pedagogical schools. Particular attention is given to the role and impact of institutions that trained historians especially in Samarkand, Tashkent, and other major cities and their interrelation with broader socio-political factors.

Key words: education system, faculty of history, history teacher, pedagogical universities.

Kirish.O‘zbekiston Respublikasida tarix fanining rivojlanish jarayonini tahlil etishda sovet davrida faoliyat yuritgan tarixchi mutaxassislar tayyorlovchi fakultetlarning shakllanishi va ularning ta’lim tizimidagi o‘rni alohida ilmiy ahamiyatga hisoblanadi. Tarix fani sohasida tarixchi kadrlar tayyorlash va tarixiy bilimlarni maxsus o‘qitishga qaratilgan fakultetlarning faoliyatini tizimli ravishda o‘rganish va uning natijalarini tahlil qilish sovet davlatining ta’lim va ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yishdagi davlat siyosatini tahlil qilish mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrda tarixchi kadrlar tayyorlovchi fakultetlarning shakllanish tarixini o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi ta’lim tizimi va tarix fanini oliy ta’lim sohasida o‘qitish muhitini oydinlashtirishga, balki bugungi mustaqil O‘zbekistonda tarix fani rivojiga zamin yaratgan manbaviy, metodik va konseptual asoslarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu mavzuni o‘rganish, zamonaviy tarixiy tafakkurning ildizlarini aniqlash, milliy tarixiy xotiraning shakllanishidagi bosqichlarni tahlil qilish hamda tarixiy merosning siyosiy-mafkuraviy ta’siridan xoli yondashuvlar bilan qayta baholash imkonini beradi.

Tarix fanining siyosiy, mafkuraviy va ilmiy jihatdan tartibga solinganligi, tarixshunoslik maktablarining shakllanishi, tarixchi mutaxassislar kadrlarini tayyorlashda qo‘llanilgan metodlar, o‘quv dasturlari va darsliklar bularning barchasi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy talablari, ilmiy ehtiyojlari hamda mafkuraviy yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Aynan shu jihatlarni aniqlash va ilmiy tahlil qilish orqali bugungi tarixiy tafakkur taraqqiyoti, tarix fanining mustaqil metodologiyasi va milliy asoslarining shakllanish bosqichlarini to‘laqonli anglash mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism

Butun sovet davlatida bo‘lgani kabi O‘zbekiston sharoitida tarixchi pedagog kadrlarni tayyorlash ishi murakkab iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda olib borildi. Garchi oliy ta’lim muassasalarining soni ortib borgan bo‘lsa-da, undagi malakali malakali professor-o‘qituvchilar soni yetarli darajada emas edi. Muassasalarga mahalliy talabalarni jalb etish ham bir tekisda kechmagan. Ta’lim jarayonlarining olib borilishida esa ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini ta’minlashda qiyinchiliklar uchrab turgan [23. 81].

Tarix fanini o‘qitish uchun aniq va tizimli o‘quv dasturlarining yo‘qligi, avvalo, yangi shakllanayotgan sovet davlatchiligining tarixga bo‘lgan mafkuraviy yondashuvi bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Sovet hokimiyati tarixni jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini tushuntiruvchi ilm sifatida emas, balki mafkuraviy maqsadlarni singdirish tadbirlarini mustahkamlovchi vosita sifatida ko‘rgan edi. Shu bois, tarix fanini o‘qitishda ilmiy izchillik va akademik erkinlik o‘rniga, mafkuraviy yondashuv ustuvor bo‘ldi. Ilmiy-metodologik jihatdan tarixni sinfiy kurashlar, iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi va proletariat diktaturasi nuqtayi nazaridan talqin qilish asosiy tamoyil sifatida qaror topgan edi [16.73].

Universitetlarda tarixchi kadrlar yo‘lga qo‘yilganda uning oldiga ikkita muhim vazifani bajarish lozim edi. Ya’ni, o‘rta maktablarning katta sinflari uchun yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash va oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun kichik

ilmiy xodimlar tayyorlab berish qaratilgan edi [20. 9]. Natija tarixchi mutaxassislarni tayyorlash masalasi bu davrda ko‘proq siyosiy-pedagogik maqsadlarga bo‘ysundirildi. Tarix fani yordamida yangi sovet fuqarosining ongini shakllantirish, eski dunyoqarashlarni yo‘qotish, milliy an’analar va tarixiy xotirani qayta formatsiyalash asosiy vazifa sifatida ilgari surildi [16.108].

Respublikada dastlabki oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashning tizimli shakli XX asrning 30-yillariga kelib yo‘lga qo‘yilgan deb hisoblash mumkin [24.7]. Respublikadagi dastlabki tarixchi kadrlar tayyorlash yo‘nalishlaridan biri Buxoro viloyatida ish boshlagan edi. Bu yerda tarix fani uchun pedagog o‘qituvchilar tayyorlash 1930-yilda Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi BuxDU) ochilgan ochilgan vaqtga to‘g‘ri keldi. Dastlab Tarix va jamiyatshunoslik bo‘limida tarixchi talabalar tayyorlangan edi[25. 663].

Partiya va hukumat mahalliy tub joy millat kishilaridan o‘qituvchilar tayyorlashga alohida e’tibor bera boshladi. 1934 yil 1 yanvarida boshlang‘ich va o‘rta to‘liqsiz maktablarda o‘qituvchi vazifasida ishlayotgan 15 ming muallimdan 8,3 mingini o‘zbeklar (55,3 foiz) va 3,7 mingi (24 foiz) boshqa mahalliy millat o‘qituvchilari edi. Pedagog o‘qituvchilarni tayyorlash maqsadida respublikaning bir qator yirik shaharlarida o‘qituvchilar institutlari ochildi. 1935 yilda tashkil qilingan Toshkent Davlat pedagogika instituti malakali pedagog kadrlar tayyorlovchi markaz bo‘lib qoldi. Ikkinchi besh yillikning oxiriga borib, O‘zbekistonda o‘qituvchilar soni 29,3 mingga yetdi, birinchi besh yillik davrida esa ularning soni 19,3 ming edi. Bulardan 21,8 ming o‘qituvchi qishloq maktablarida o‘qituvchilik bilan shug‘ullangan.

Dastlab respublika miqyosida tarixchi kadrlar ToshDU (hozirgi milliy universitet), 1933-yildan Samarqandda, 1930-yilga kelib esa Buxoro pedagogika instituti ochildi. Dastlab uning kimyo-biologiya bo‘limi birga tarix-ijtimoiyot singari ikki bo‘limi mavjud bo‘lib ularda jami 45 talaba tahsil olgan [85. 67-68]. 1935-yilda esa BuxDPI tarkibida 2 yillik o‘qituvchilar instituti hamda 5 bo‘lim faoliyat ko‘rsatdi.

Tarixdan ma’lumki, sovet hokimiyatining 30-yillardagi mafkuraviy siyosatida asosiy targ‘ibotchi kuch sifatida o‘qituvchilardan keng foydalanilgan edi. Ayniqsa, mahalliy sovetlarning maktab o‘qituvchi va o‘quvchilar mehnatidan keng miqyosida foydalanish holatlari bahorgi ekin kampaniyasi ishlari bo‘lgan bahorgi paxta chopig‘i, paxta o‘tovi, g‘alla o‘tovi ishlarida yaqqol ko‘zga tashlandi. Tarixchi kadrlarning XX asrning 30-yillaridagi faoliyatini esa maktab va maktabdan tashqarida uyushtiruvchi sifatida o‘quvchilar o‘rtasida tartib-intizomni yuritish tashkil etgan [14. 178].

1934-yilda Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining “Tarix fanini o‘qitish va uni marksistik-leninchilik asosida rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori asosida SSSR miqyosida barcha oliy o‘quv yurtlarida tarix fakultetlari alohida yo‘nalish sifatida ajratildi [15. 103]. Bu qaror tarix fanini mafkuraviy nazorat ostiga olishga qaratilgan muhim siyosiy qadam bo‘lib, ilmiy erkinlikni keskin cheklanishiga olib keldi.

Kadrlar tayyorlash jarayonida e’tiborga molik jihati bo‘lajak tarixchi kadrlarga o‘qitilgan fanlarning mazmuni muhim ahamiyat kasb etdi. Tahlil qilingan aksariyat tarix

fakulteti va yo‘nalishlari tarixidan ma’lum bo‘ladiki, dastlab tarix fakulteti tashkil etilishidan avval bu muassasalar tarkibida ijtimoiy fanlar kafedrasi yoki umumiy tarix kafedralarining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Respublika bo‘ylab tarix fakulteti 1931-yili Andijon kechki pedagogika instituti tarkibi, 1932-yilning yanvarida esa Farg‘ona davlat universiteti tarkibida tashkil topgan bo‘lib, shu yili 22 nafar talaba bilim olgan [21. 3-4]. 1932-yildan 1938-yilgacha fakultetni Fotima Yuldashboeva boshqargan [26. 69-70].

1934-yilda respublika oliy o‘quv yurtlarida “Tarix va jamiyatshunoslik” bo‘limi bazasida mustaqil Tarix fakul’teti tashkil etildi [1. 9]. Tuzilgan tarix fakultetlarining asosiy maqsadi tarix va jamiyatshunoslik fanlari bo‘yicha o‘rta maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash etib belgilangan edi. 1935-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarkibida dastlabki tarixchi kadrlar tayyorlash uchun qadamlar tashlangan. Mazkur yo‘nalish tashkil etilgan dastlabki davrda bu yerda 23 nafar talaba tahsil olgan [1. 9].

O‘zbekiston SSRda tarixchi kadrlar miqdori umumiy maktablar soniga nisbatan yetishmas edi. O‘rta Osiyo davlat universitetining (SAGU) [12. 9] tarix fakulteti 1935-yili ochilgan bo‘lib, talabalar umumiy sonining asosiy qismini rusiyzabon talabalar tashkil etgan [19. 46].

O‘zbekiston SSRda ushbu markaziy siyosiy yo‘nalish doirasida 1935-yilda Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tarix fakulteti alohida mustaqil bo‘linma sifatida tashkil etildi. Bu tarixiy qadam O‘zbekistonda tarixchi mutaxassislarni tizimli va markazlashgan tarzda tayyorlash jarayonining muhim bosqichini boshlab berdi. Fakultetning tashkil topishi bilan tarix fanlariga oid alohida kafedralar umumiy tarix, Sovet Ittifoqi tarixi, O‘rta Osiyo tarixi, KPSS tarixi, falsafa va siyosatshunoslik kafedralari faoliyat yurita boshladi. Mazkur fakultetning o‘quv dasturlari Moskva va Leningraddagi markaziy universitetlar andozasi asosida tuzildi. Bu esa O‘zbekistonda tarixiy ta’lim mazmuni va metodikasining mustaqil shakllanishiga to‘sqinlik qildi, aksincha, ularni markaziylashtirilgan mafkuraviy standartlarga bo‘ysundirdi.

1934/35-o‘quv yilida Samarqand shahrida joylashgan O‘zbekiston Davlat universiteti fakultetlarida 1964 nafar talaba tahsil olgan. Universitetni dastlab 179 nafar talaba tamomlagan bo‘lib, shundan 13 nafari bo‘lajak tarixchilardan iborat edi [11. 5]. Mazkur ko‘rsatkich bitiruvchilar umumiy ko‘rsatkichining 14 foizini tashkil etgan holda vrach, iqtisodchi va kimyo yo‘nalishidan keyingi o‘rinda edi. XX-asrning 30-yillari o‘rtasida tarix yo‘nalishida saboq olgan dastlabki bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalarida faoliyat boshlashlaridagi dastlabki davr bo‘ldi. Xususan, 1936-yilda tarix fakultetini tugatgan dastlabki mahalliy kadrlardan biri bo‘lgan Mirza Abulqosimov 1936-1939-yillarda universitet aspirantura bosqisida tahsil oldi. 1939-yilda universitetning bir yo‘la uch nafar bitiruvchilari M.Abulqosimov “1916 yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni”, K.A.Kuldonov “Xivaning Rossiya tomonidan bosib olinishi”, H.F.Chikaev “Farg‘ona vodiysi o‘troqli tumanlarida chor hokimiyatining agrar siyosati” mavzusida nomzodlik tadqiqotlarini muvaffaqiyatli himoya qildi [6. 108].

Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi davrda tarix fanini o‘qitishga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Jamiyatda fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada sovet davlatining tutgan o‘rnini tarixiy asoslarini targ‘ib qilish, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani bo‘rttirib ko‘rsatish, Sovet Ittifoqining xalqaro obro‘sini tarixiy dalillar bilan asoslash zarurati tarix fani o‘qituvchilarini tayyorlashning ahamiyatini oshirdi. Bu esa o‘z navbatida tarixni mukammal biluvchi, uni rasmiy mafkuraga muvofiq tarzda o‘rgata oladigan o‘qituvchilarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirgan edi. **XX asrning 40-yillaridan boshlab sobiq SSSR ichki siyosatida olib borilgan har qanday siyosiy masalalarning muhokamasi va hal qilinishiga mafkuraviy tus berildi. Jamiyatdagi ijtimoiy-gumanitar ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarning hal etilishida olimlar, o‘qituvchilar, huquqshunoslar, madaniyat arboblarining faoliyati “ijtimoiy fikrni shakllantirish va o‘rganishning samarali vositasi” sifatida e’tirof etilgan edi. Natijada oliy ta’lim sohasida gumanitar sohada kadrlar tayyorlash va ijtimoiy fanlarni o‘qitish davlat siyosatini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq deb qaraldi.** 1944-yilda tarix fakultetlari tarkibida falsafa, siyosiy iqtisod, partiya tarixi fanlari birlashgan ijtimoiy fanlar kafedrasi tashkil qilindi [11. 19]**.**

1940-yillarning oxiri - 1950-yillarning boshlarida majburiy yetti yillik, keyinchalik esa o‘n bir yillik ta’lim joriy etilishi munosabati bilan RSFSR Xalq Maorif Komissarligi tarkibidagi Ilmiy uslubiy kengash majlislarida o‘quv jarayonini optimallashtirish maqsadida o‘quv rejalari, dasturlari va tarix darsliklariga o‘zgartirishlar kiritish masalalari faol muhokama qilindi. Garchi o‘tgan davrda bo‘lgani kabi mahalliy partiya va xalq ta’limi organlari maktablarda o‘quv-tarbiya jarayoni to‘g‘ri yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa-da, tayyorlangan mahalliy tarixchi o‘qituvchilarning kasbiy mahorat darajasi ham oshdi [1. 57-64].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda tarix fanini o‘qitishning asosiy muammoli masalalaridan biri o‘qituvchi xodimlar muammosi bo‘ldi. Chunki malakali o‘qituvchilar, asosan, urushga yuborilgan, ularning ko‘pchiligi frontda halok bo‘lgandi. Xususan, 1947 yilda respublika bo‘yicha 4 ming o‘qituvchi yetishmasdi. Tuman xalq maorifi bo‘limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta’lim bo‘yicha direktor muovinlarining 60 foizdan ko‘prog‘i tegishli ma’lumotga ega emasdi [18. 571]. Maktablarda o‘qituvchilar yetishmasli natijasida maktablarda ko‘p hollarda maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan, ma’lumoti past, malakasiz kishilar muallimlik qilgan holatlar ham uchrab turgan. Masalan, Izboskan tumanidagi maktablarning ta’lim ahvolini tekshirish jarayonida o‘qituvchilar arifmetikaning to‘rt amalidagi masalani qiynalib yechishi, bo‘g‘inlarga bo‘lib o‘qishi ma’lum bo‘lgan. Toshkent shahar Oktyabr tumanidagi 74-maktabning matematika o‘qituvchisi matematikani umuman tushunmasligini, dars berishga majbur qilinganligini ochiq-oydin tan olgan. Shu tumanning yana bir maktabiga matematikadan dars berish uchun magazin sotuvchisi yuborilgan [17. 220].

Shuningdek, KPSS Markaziy Qo‘mitasining 1949-yildagi qarorlariga muvofiq, tarix fanini o‘qitishda yagona marksistik-leninchilik metodologiyasi asosida harakat qilish majburiy bo‘lgan. Shu bois, O‘zbekiston SSRdagi tarix fakultetlari markaz nazoratida bo‘lib,

mutaxassislarning tanlovi ham mafkuraviy moslik asosida amalga oshirilgan. 1950-1951-o‘quv yilidan e’tiboran Qarshi o‘qituvchilar institutiga qabul qilingan 150 nafar talabaning 25 nafari tarix fakultetida o‘qishni boshladi [13.103]. BuxDPI urushdan keyingi yillarda respublikaning yetakchi ilm maskanlaridan biri sifatida shuhrat topdi: talabalar soni 1946-1960-yillarda 521 tadan 1575 taga, 1960-1980-yillarda 7531 taga yetdi.

Tadqiqotchi Sh.Ro‘ziqulov ma’lumotlariga ko‘ra, tahlil qilinayotgan davrda O‘zbekiston SSRda tarixchi kadrlar tayyorlovchi yo‘nalishga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarining soni ortib bordi. 1950-yilda pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassalari soni 12 ta (10 ta pedagogika instituti, 2 ta universitet) bo‘lsa, 1960-yilga kelib ularning soni 15 tani (10 ta pedagogika instituti, 2 ta universitet) tashkil etgan. Oliy o‘quv yurtlari sonining respublika miqyosida o‘sib borishi bilan 1963-1964 o‘quv yilida 13 ta o‘qituvchilar instituti bo‘lib ularda hammasi bo‘lib, 139 228 kishi tahsil olgan [5. 12-13]. Mazkur yillar davomida respublika bo‘ylab pedagogika yo‘nalishida 6 ta institut tashkil etilgan edi. 1980-yillarga kelib pedagogika institutlarining soni 17 taga, universitetlarning soni 3 taga yetgan edi [9. 147-150].

XX asrning 50-yillarida tarix fani kadrlarining holati va ularning miqdori yoki saviyasiga doir ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Yetti yillik va o‘rta maktab o‘qituvchilarining ko‘pchilik qismi pedagogika oliy o‘quv yurtlariining sirtqi bo‘limlaridan o‘qimasliklariga qaramasdan birorta ijobiy amaliy tadbir olib borilmagan. Maktablarda bir o‘qituvchi bir nechta fandan dars mashg‘ulotini olib borgan. Xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosati KPSS Markaziy Qo‘mitasining 1954-yil 30-avgustdagi “Oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash va taqsimlashni yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori va maxsus qabul qilingan direktiv hujjatlar asosida davlat besh yillik rejalarida ko‘rib chiqildi. Maktablar va o‘quvchilar sonining oshib borishi o‘qituvchilarga bo‘lgan talab va ularning taqsimotini qayta ko‘rib chiqilishi zaruratini yuzaga keltirdi.

1955-56-o‘quv yilida Surxondaryo viloyatininng Termiz tumanidagi “Namuna” nomli yetti yillik maktabda o‘qituvchi Xo‘jaqulovning bir o‘zi tarix fanidan tashqari kimyo, biologiya, SSSR konstitutsiyasidan dars bergan [7.5]. O‘qituvchining diplom mutaxassisligi bo‘yicha aniq kasbi haqida aniq ma’lumot qayd etib o‘tilmagan. Natijada esa o‘quvchilarning tarix fanidan biror mavzuni to‘liq o‘zlashtira olmaganliklari qayd etib o‘tiladi. Shuningdek, Denov tumanida 24-maktabda Z.Nabiyev va A.Xasanov kabi o‘qituvchilar tarix fani va boshqa turli dars mashg‘ulotlaridan haftasiga 38 soatdan dars mashg‘uloti olib borgan. Bunday ma’lumotlar o‘sha davr Buxoro viloyati Konimex rayoni 5-o‘rta maktabda ham qayd qilingan A.Bozoraliyev va X.Nazarov kabi o‘qituvchilar tarix fanining asosiy maqsadi va vazifasini unutgan holda o‘quv dars mashg‘ulotlarini susaytirib yuborganliklari tuman maorif bo‘limi tekshiruv komissiyasi tomonidan yozib olingan [7. 7].

1957-yilda O‘zbekistonda “O‘zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta’limni to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi [5. 12-13]. 1959-yil mart oyida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti “Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va

respublikada xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” yangi qonun qabul qildi. Qabul qilingan hujjatlarda pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, mamlakat maktablarini oliy ma’lumotli kadrlar bilan to‘liq ta’minlash majburiyatini bajarishi lozim edi. Bundan kelib chiqadiki, oliy pedagogika bilim yurti oldingi an’analarga muvofiq, sovet tuzumi asosida tuzilgan dasturlar mazmuniga ega bo‘lgan, ilmiy bilimga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutardi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, u universitet ta’limini kommunistik qurilish hayoti va amaliyoti bilan bog‘lashi kerak edi [1. 57-64].

1960-1970-yillar davomida O‘zbekiston bo‘yicha tarixchi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi. Bungi asosiy sabablaridan biri mazkur davrga kelib sovet davri maorif tizimida yuz bergan o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi. Xususan, maktablarda tarix o‘qitilgan to‘rtinchi va o‘ninchi sinflar soni o‘sib bordi. XX asrning 60-yillariga kelib O‘zbekistonning janubiy viloyatlarini tarixchi kadrlar bilan ta’minlash maqsadida Qarshi davlat universiteti qoshida 1961-yildan Tarix-filologiya fakulteti nomi ostida dastlabki tarixchilar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi [10. 47].

Ta’lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralgan bo‘lib, bu yillarda umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarining soni hamda ularning qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Xususan, maktab ta’limi bosqichida tarix fani ijtimoiy ongni shakllantirishda asosiy mafkuraviy vositalardan biri sifatida qaralganligi sababli, uni o‘qitish sifati va ko‘lamini oshirish zarurati tug‘ildi. Bu esa mafkuraviy jihatdan tayyorlangan tarix o‘qituvchilar korpusini shakllantirishni davr talabi sifatida ilgari surdi. 1965 yilda Termiz davlat pedagogika instituti qayta tashkil etilishi bilan Umumiy tarix fanlari barcha ijtimoiy fanlar bilan birgalikda bitta kafedra qilib tashkil etilgan. 1975 yil umumiy tarix kafedrasi mustaqil kafedra bo‘lib tashkil topdi. 1968-1974-yillarda Tarix-geografiya bo‘limi, 1977-yildan esa yana tarix fakultetiga aylantirilgan edi [14. 47].

Tarix fani o‘qituvchilariga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida mamlakat bo‘ylab oliy pedagogik ta’lim muassasalarida, jumladan, universitetlar va pedagogika institutlarida tarix fakultetlari faoliyati kengaytirildi. Ushbu fakultetlar nafaqat tarixiy bilimlar berish, balki ularni sovet mafkurasiga muvofiq tarzda talqin qilishni ham o‘rgatishga ixtisoslashdi. 1960-1970-yillarga kelib, deyarli har bir yirik shaharda faoliyat yuritayotgan pedagogika institutlari qoshida tarix yo‘nalishlari ochilib, ularda minglab talabalar tahsil oldi.

Termiz davlat universiteti qoshida 1967-yildan boshlab tarix-geografiya bo‘limi tashkil etilib, 50 nafar talabalar kontenginti asosida tarixchilar tayyorlash yo‘lga qo‘lga qo‘yilgan edi. 1977-yildan boshlab tarixchi kadrlarga bo‘lgan talabning oshib borishi natijasida Termiz davlat pedagogika instituti rektorining maxsus buyrug‘i bilan tarix fakulteti tashkil qilingan edi [15.4].

XX-asrning 70-80-yillariga kelib respublika hududida tayyorlangan tarixchi kadrlarning soni va salmog‘i o‘sib bordi. Bunga respublika bo‘ylab ochilgan universitet hamda institutlar sonining ortib borganligi asosiy turtki bo‘ldi. Jumladan, 1976-yildan Nukus shahrida

Qoraqalpoq davlat universiteti ochilgan edi. Keyinchalik tarixchi kadrlar viloyatlarda tashkil etilgan pedagogika institutlarida tayyorlana boshladi. 1975-1976-o‘quv yilida respublika miqyosida 42 ta oliy o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatgan. Ularda 246,6 ming nafar talaba tahsil olgan [4. 624].

Xususan, 1971-1975-yillar davomida respublika universitet va institutlarida 1971/72-o‘quv yilida kunduzgi ta’limda 22/116 nafar, kechki va sirtqi ta’limda 394/739 nafar jami 416/865 tarixchi kadrlar tayyorlab berilgan. 1972-yilda esa kunduzgi ta’limda 88/304, sirtqi va kechki ta’limda 405/862 nafar jami 493/1166 nafar, 1975-yilda esa kunduzgi ta’limda 108/388, sirtqi va kechki ta’limda 340/1008 jami 448/1396 nafar tarixchilar respublika bo‘ylab tayyorlangan [16.25].

Tarix o‘qituvchilarini metodik jihatdan tayyorlashni samarali tashkil etish maqsadida “Tarix va ijtimoiy fanlar metodikasi” deb nomlangan alohida kafedralar tashkil etildi. Bu kafedralar tarix fanining didaktik asoslari, o‘quv-metodik usullari, sinfiy yondashuv va KPSS tarixini o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. Kafedralar tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar, dars ishlanmalari va uslubiy tavsiyalar SSSR Ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan standartlarga moslab ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash jarayonlarida bir qator salbiy jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, tadqiq qilinayotgan davrda bir tomondan, oliy ma’lumotli o‘qituvchi kadrlarni etishtirish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan kadrlar tayyorlash ishidagi nooqilona siyosat tufayli umumta’lim maktablarini, ayniqsa, qishloq maktablarida kadrlar etishmasligi va ularning qo‘nimsizligi yuqori bo‘lgani qayd etib borilgan. Mazkur jihat Qarshi davlat pedagogika institutini tamomlagan tarixchi kadrlar xizmat faoliyatida ko‘zga tashlangan [3. 13-14].

Sovet Ittifoqi ta’lim siyosatining eng muhim xususiyatlaridan biri, ayniqsa tarix fakultetlariga qabul jarayonida, tinglovchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga berilgan e’tibor bilan belgilanadi. 1920-yillardan boshlab kuchaygan sinfiy siyosat 1930-1950-yillarda mafkuraviy siyosat ta’sirida mutlaq mafkuraviy tus oldi. Sovet hokimiyati o‘zining sinfiy kurash konsepsiyasiga asoslanib, ta’lim sohasini ham sinfiy tafovutlar orqali nazorat qilish vositasiga aylantirgan edi.

O‘quv yurtlarini mutaxassislar bilan ta’minlash jarayoni murakkab va ziddiyatli kechdi. Sovet maktabini “sotsializm quruvchilari” bo‘lmish yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashning asosiy mafkuraviy instituti deb tasavvur etgan hokimiyat idoralari maktab xodimlari tayyorlashning butun tizimini siyosiy-mafkuraviy asoslarga qurishga intildi Sovet o‘qituvchilari, partiya-davlat rahbariyatining fikricha, nafaqat o‘zlari g‘oyaviy jihatdan yetuk bo‘lishlari, balki yoshlarni “sotsialistik qurilshi”da faol ishtirok etishga tayyorlay oliшlari zarur edi. Mazkur strategik ko‘rsatmani amalga oshirish jarayonida o‘qituvchilarni qat’iy sinfiy jihatdan tanlash va ularning kasb ta’limi yo‘lga qo‘yilgan edi [22. 286].

1940-1960-yillar davomida O‘zbekiston SSRdagi oliy o‘quv yurtlarining, xususan, tarix fakultetlarining professor-o‘qituvchilar tarkibida ruslar va boshqa slavyan xalqlari vakillari ko‘pchilikni tashkil etgan edi. 1945-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi oliy

ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning qariyb 60 foizini ruslar, ukrainlar va beloruslar tashkil etgan. Ayniqsa, tarix, falsafa, siyosiy iqtisod kabi mafkuraviy fanlar bo‘yicha yetakchi o‘rinlar, odatda, Moskvadan yoki Leningraddan yuborilgan mutaxassislarga tegishli bo‘lgan [15.63].

Bu holat, bir tomondan, Sovet markazining O‘rta Osiyo mintaqasiga ilmiy-metodik rahbarlik qilish siyosati bilan izohlangan bo‘lsa, boshqa tomondan, mahalliy milliy kadrlarning yetishmovchiligi va rus tilidagi ilmiy-uslubiy adabiyotlarning mutlaq ustunligi bilan bog‘liq edi. 1950-yillar oxirigacha O‘zbekistondagi tarix fakultetlarida ishlayotgan professor-o‘qituvchilarning 70-80 foizi o‘z dars mashg‘ulotlarini rus tilida olib borishgan [2. 20-21]. Ko‘pgina o‘quv qo‘llanmalari Moskva yoki Leningraddagi markaziy nashriyotlarda chop etilgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar deyarli mavjud emas edi.

1970-yillardan boshlab Sovet Ittifoqida kadrlar siyosatida nisbiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar, bir tomondan, ittifoq hududlarida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish, mahalliy aholining Sovet tuzumiga nisbatan sodiqligini mustahkamlash zarurati bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘rta bo‘g‘in va ilmiy-pedagogik kadrlar ichida mahalliy millat vakillarining soni ortib borayotgan edi. Xususan, O‘zbekiston SSSR ittifoqdosh respublikalar tarkibida demografik jihatdan muhim hududlardan biri sifatida bu jarayonda alohida o‘ringa ega bo‘ldi. 1970-1980-yillarda O‘zbekistonda tarix fani va tarixshunoslik sohasida milliy kadrlarning shakllanishi kuzatildi. Toshkent Davlat Universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika instituti, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona kabi hududiy oliy o‘quv yurtlarining tarix fakultetlari negizida o‘zbek millatiga mansub yosh tarixchilarni yetishtirish siyosiy va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

Mazkur davrda, ayniqsa 9-besh yillik (1971-1975) va 10-besh yillik (1976-1980) rejalashtirish davrida, mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan tarix fani o‘qituvchilarining soni keskin ortdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1980-yilga kelib O‘zbekiston SSR oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan tarix fanidan dars beruvchi pedagoglar orasida o‘zbek millatiga mansub mutaxassislar ulushi 50 foizdan oshgan [16. 19].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tarixchi kadrlar tayyorlash masalasi tahlili sovet davlatining tarix faniga nisbatan yuritgan davlat siyosatining ma’lum bir yo‘nalishini o‘zida aks ettiradi. Jumladan, sovet davlatida jamiyat boshqaruvining turli sohalari uchun kadrlar tayyorlash siyosatining o‘ziga xos yo‘nalishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini nazarda tutardi. Tahlilga tortilgan arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlardan ma’lum bo‘ladiki, pedagog kadrlash yo‘nalishida tarixchi kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur jarayonda tarixchi kadrlar tayyorlashda asosiy urg‘u hukmron mafkura ta’sirini jamiyatga singdirish e’tiboridan olib borildi.

Sovet ta’lim siyosati jamiyatni boshqarish, hayotning barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlash, yosh avlodni shakllantirish va tarbiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosatga muvofiq mamlakat aholisiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini bajardi. Tarix fani sohasida pedagog kadrlar tayyorlash respublika oliy ta’lim muassasalarida

jamiyatni birlashtirish, davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirishni hal qilishga qaratilgan edi. Shu davrdan boshlab tarix fani o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki sovet mafkuraviy pozitsiyasining tashuvchisi bo‘lishi zarur edi. Bu esa, tarix fakultetlarining tuzilmasi, o‘quv dasturlari, ilmiy-metodik yondashuvlari va kadrlar tanlash siyosatida keskin o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Fakultetlar faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri partiyaviy nazorat ostida olib borildi. Pedagogik tarkibning mafkuraviy tayyorgarligi, siyosiy faoliyati, shaxsiy sadoqati doimiy ravishda baholab borildi. Shuningdek, o‘quv dasturlarida sovet mafkuraviy nazariyasi, KPSS tarixi, siyosiy iqtisodiyot kabi fanlar majburiy bo‘lib, tarixiy bilimlar aynan sovet mafkurasi konsepsiyasiga muvofiq tarzda o‘rgatildi. Bu orqali tarix fani sovet mafkurasining asosiy targ‘ibot vositasiga aylantirildi. Fakultet bitiruvchilari esa maktablar, texnikumlar va oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yurituvchi sovet mafkurasining targ‘ibotchilari sifatida ko‘rilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Narmanov F.A. XX- asrning 40-60-yillarida tarix fani o‘qitilishida yuz bergan o‘zgarishlar / Sohibqiron yulduzi. № 1. – Qarshi. – B. 57-64.

2. Rasulova N.S. O‘zbekiston kommunistik partiyasi kadrlar tayyorlash siyosatining sovet mafkurasi targ‘ibotiga yo‘naltirilishi tarixi. Fan doktori (DSc) disser avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 20-21. (72)

3. Shadiyeva D.A. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirilishi (Qarshi davlat universiteti misolida, 1945-2020 yy.). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoref. – Qarshi. – B. 13-14.

4. Vasieva D.I. Main Directions of Changes in the System of Education and Training in Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Special Issue, Aug-2021. – P. 624.

5. Агзамова Р.Х. Развитие высшего образования в Узбекистане (1959-1965 гг.) Автореферат дис. ... кандидата исторических наук. – Ташкент, 1965. – С. 12-13 (21)

6. Бодиров А.Ж. Самарқанд вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1925–1941 йй.). – Самарқанд. 2019. – Б. 108.

7. Кадрлар билан ишлашга алоҳида эътибор берайлик. Совет мактаби журнали. 1956, №7. – Б. 5.

8. Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Институти. – Тошкент: Ўздавнашр, 1958. – Б. 9. (22).

9. Рўзиқулов Ш.М. 1960-1980-йилларда Ўзбекистон ССР олий таълим тизимидаги ўзгаришлар: ютуқ ҳамда муаммолар. International scientific journal “Interpretation and researches”. Volume 2 issue 3 (25) | ISSN: 2181-4163. – Pp. 147-150.

10. Садыков С.С. Очерки развития высшего образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1969. – С. 47. (224 с).; Журакулов О. Қарши давлат университети. – Тошкент: Фан. 1999. – Б. 17. (33)

11. Самарқанд ВДА, 637-фонд, 1-рўйхат, 93-иш, 19-варақ.

12. Сборник статей: Юбилейное изд. к 25-летию САГУ. – Ташкент: Изд. САГУ, 1943. – С. 9. (46)

13. Тўраева М. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (19201940 йй.). Тарих фан номз диссер. –Тошкент, 2001. – Б. 103.

14. Ўз МА, 94-фонд, 5-рўйхат, 14-иш, 178-варақ.

15. Ўз МА, 94-фонд, 5-рўйхат, 85-иш, 67-68-варақлар.

16. Ўз МА. 94-фонд, 5-рўйхат, 2145-иш, 108-варақ.

17. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 2. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston. НМИУ, 2019. – Б. 220.

18. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Б. 571.

19. Умаров С.У. Высшее образонавие в Узбекистане 25 лет. – Ташкент, 1949. – С. 46.

20. Умаров С.У. Ўзбекистонда олий таълим. – Тошкент: Ўздавнашр, 1950. – Б. 9. (74)

21. Фарғона давлат университети: тарих ва юксалиш йиллари. Масъул муҳаррир Ш.Х.Ташматов ; – Фарғона : Фарғона, 2015. – Б. 3-4. (344).

22. Чориев А.Ҳ. Мустабид шўролар тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчикадрлар тайёрлаш: миллий-анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлар (20-30-йиллар). Тарих фан. доктори дисс... – Тошкент, 1998. – Б. 286.

23. Шарипов Ф. Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – С. 81. (117)

24. Шарипов Ф. Развитие высшего образования в Узбекистане (1929-1941 гг.). Автореф. дис ... канд ист наук. – Ташкент, 1963. – С. 7. (16)

25. Эргашев Б.Х. Бухоро давлат университети. – Бухоро. 1998. – Б. 4. (11). Яна қаранг: Муродова Д.Ш. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Бухорода илм ва фан (Бухоро педагогика институти мисолида) / Scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021. – Б. 663.

26. Юлдашбаева Ф. Моя судьба. Рассказы о жизни. – Ташкент: Ёш гвардия, 1972. – С. 69-70. (120 с).